

ABDULLA QAHHOR "MING BIR JON" VA O.GENRINING "SO'NGGI YAPROQ" HIKOYALARINING QIYOSIY TAHLILI

Abdullayeva Robiyaxon

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Ibrohimova Dildora

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O.Genrining "So'nggi yaproq" va Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" hikoyalardagi bosh qahramonlar, ishlatalgan usullar va hikoyalardagi detallarning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: hikoya, janr, personaj, detal, kulminatsiya, yakun, qiyoslash, tahlil qilish.

Adabiyot har bir xalqning ijtimoiy va ma'naviy hayotini tasvirlab beruvchi fanlardan biri hisoblanadi. Biz turli xalqlar adabiyotida bir xil mavzu yoki g'oyalar asosida yozilgan asarlarga duch kelishimiz mumkin va buni tabiiy ham deyish mumkin. Chunki adabiyotda adabiy ta'sirlanish masalasi mavjud hisoblanadi va ijodkorlar bir- birlarining asarlaridan ijodiy ta'sirlangan holda asarlar yozishadi, lekin bu asarlarning yozilish uslubida ikkala inokorning o'z uslubi va qarashi sezilib turadi, shuning uchun g'oya yoki mavzusi bir xil asarlar uchrab turadi. Buyuk amerikalik yozuvchi O. Genrining " So'nggi yaproq va XX asr mashhur o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" hikoyalari yuqorida tasvirlangan turdag'i adabiy asarlar turiga misol bo'la oladi.

Ikkala yozuvchi ham o'z hikoyalarda hayotdagi eng muhim va bu hayotga yashashga undovchi ikki kuch - ishonch va umidni qanchalik zarur ekanligini yoritishgan. Hikoyalardagi duch keladigan dastlabki o'xahashlik bu hikoyaning mavzusi : umid orqali insonlarning qanday og'ir dard bo'lmasin hayotga qayta olishi. Shuningdek, tanlangan qahramonlarning jinsi, ikkovlari ham ayol ekanliklari : Jonsi va Mastura . Yana bir o'xshashlik esa, ikkala hikoyada ham ularning yonida doimo ularni qo'llab-quvvatlovchi, dalda beruvchi insonlarning yonida bo'lismidir. Jonsining yonida uning yaqin dugonasi va xonadoshi Syu unga doim g'amxo'r va eng ko'p qayg'urayotgan inson. Mastura esa turmush qurgan, oilali ayol va uning yonida o'zining turmush o'rtog'i Akramjon. Akramjon u bilan necha yillardan beri Mastura bu dardga chalingan bo'lsa-da yonidan jilmay g'amxo'rlik qilayotgan edi.

Genrining hikoyasida Jonsi Kaliforniyalik Vashingtonda yashab ishlovchi oddiy, ojiz bir yosh xonim. Genri ham uni o'z hikoyasida aynan "azobga umuman bardoshsiz, nimjongina bir ayol" deb ta'riflaydi. Hikoyaning boshidanoq uning qanchalar zaif ekanligini aytib qo'yadi. Shundan so'ng esa uni nega bunday deganligini tushuntiradi. Jonsi zotiljam nomli kasallikka

chalinadi va shundang so'ng bu dardga qarshi kurashish o'rniga hayotdan o'z umidini uza boshlaydi . Shuning uchun doktor va dugonasi shuncha urinmasin , hech narsa qo'llaridan kelmaydi. Jonsi butun hayotini bir ahamiyatsiz derazadan ko'rinish turuvchi pechakgulning yaproqlariga tenglashtiradi. U hikoyada Syuga shunday deydi: "Barglar. Pechakgul yaproqlari. Ularning so'nggisi to'kilganda, men ham hayot bilan vidolashaman. Buni uch kundan beri sezib turibman." Hikoyada yozuvchi vaqt va mavzuni shunday tanlaganki, ular asarning mazmunini yaqqol ochib beradi. Hikoyaning nomi „so'nggi yaproq" „o'lim" ma'nosini bergen. Bundan tashqari hikoyaning sodir bo'lish paytini qish fasli qilib oladi, ya'ni eng sovuq faslni tanlab oladi.

Qahhorning qahramoni esa Jonsining teskarisi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki Qahhor o'z qahramonini shunday kuchli , jasur ayol sifatida tasvirlaydiki, hattoki atrofidagilar uning o'llishiga ishonsada, uni ko'rganlar o'likdan farqi yo'q ekanligidan qo'rqliklari , uni ko'rganda xuddi bir o'likni ko'rishsada, qahramon hech qachon umidini uzmaydi , hayotga umid bilan yashaydi. Qahhorning qahramoni - Masturani qanday kuchli harakterga ega ekanligini hikoyada undan xol-ahvol so'rash uchun uch erkak kirganida, ulardan biri Masturaning holatini ko'rib qotib qoladi. Hamshira u insonni bemorga bildirmaslik uchun olib chiqib ketganida ham Masturaning javobidan yaqqol ko'rishimiz mumkin. Qahhor shunday yozadi: "Mastura qonsiz labida tabassum bilan eriga yuzlandi:-Akromjon, daftaringizga yozib qo'ying:uch mard-u maydon meni ko'rgani kirgan edi, bittasi arang qochdi-yu, ikkitasi qochgani ham bo'lmay, o'tirib qoldi." deya xazil ham qila oladi. Bundan tashqari Genri singari Qahhor ham asarning nomini qahramoni harakteriga mos ravishda tanlagan.Mastura bu dard bilan o'n yildan beri kurashardi , hikoyada buni eshitgan Hoji aka bu ayolning joni bitta emas mingta ekanligini aytadi . Haqiqatdan ham, shuncha yil bo'lsa ham umidini uzmasdan kelayotgan Masturada bir emas ming jon bor deyishimiz mumkin. Genri hikoyasida qishni ya'ni hammayoq, borliq uyquga ketadigan faslni, Qahhor esa bahorni tasvirlaydi , ya'ni yasharish , yangilanish, yangi hayot boshlanishi faslidir. Bu bilan yozuvchi Masturaning hayotga bo'lgan umidini, qishdan so'ng kelib , uyquga ketgan borliqni qo'zg'atuvchi , uyg'otuvchi faslga o'xshatmoqchi bo'ladi desak bo'ladi.

Ikkala hikoyada ham qahramonlar tirik qoladilar. Ammo ular hayotga bo'lgan umidni turli tomonlama olishadi. Jonsi o'zining umidi qishning qahratoni va bo'ronlarida ham to'kilmay qolgan pechakgulning so'nggi yaproq'idan oladi . qilayotganimni ko'rsatish uchun to'kilmay turishga kuch topa oldi. O'ziga o'lim tilash kata gunoh. Bunday niyat qilganimdan uchun o'zimdan o'zim uyalib ketyapman." (hikoya so'nggida keyinroq Jonsi u yaproq allaqachon to'kilib tushgani, u ko'rgan yaproq esa unga qo'shni bo'lgan qari rassomning san'at

asari ekanidan xabar topadi). Masturadagi ishonch va umid esa uning o'zida edi. U umuman taslim bo'lish haqida o'ylamadi ham, buni u operatsiya kirib ketayptgandagi holatida ham ko'rishimiz mumkin. Hikoyada shunday tasvirlanadi: „.. vaqtı -soati yetganda Masturani sestra bilan Akramjon ikki tomondan suyab olib chiqishdi. Lekin eshikdan chiqilishi bilanoq Mastura ikkovini ikki tomonga itarib o'zi yurdi ; bardam qadam tashlab , operatsiya zalining eshigini o'zi ochib kirib ketdi" deyiladi.

Hikoyadagi eng ajablanarli va o'xshash jihat shuki , ikkala yozuvchi ham o'z hikoyalarini kutilmagan qahramonlarning o'limi bilan yakunlaganligidadir. O'qiyotgan o'quvchi boshidan ohirigacha butun e'tibori bosh qahramonlar o'ladimi yoki yo'qmi ? deya o'ylaydi lekin so'nggida esa bosh qahramonlar tirik qolgan holda , boshqa qahramonlar o'ladi. O'limlarning oshkor bo'lishi ham bir xil hisoblanadi . Qahramonlarning hayotda saqlanib qolganligidan so'nggina nariqi qahramonlar o'lganligidan habardor bo'linadi.

Hikoyalar bo'yicha tahlilimizni yakunlar ekanmiz, ikkala yozuvchi ham o'z asarlarida ishonch va umid hayotimizda eng katta motiv ekanligini yoritib berishgan. Shunga qaramasdan, yozuvchilarining hayotga yondashuvi turli bo'lgani munosabati bilan turli zid jihatlarga ham duch kelamiz. Masalan, Qahhor qahramoni kuchli xarakterga ega ayol, Genri esa qahramonini irodasiz va ojiz tasvirlaydi. Bundan tashqari milliylikni ham ochib bergen deyishimiz mumkin. Qahhor o'zbek ayollarini qanchalik matonatli ekanligini , hayotga nisbatan hech qachon umidsizlikka tushmasligini ko'rsatib bergen. Bugungi kunda ham bu asarning qo'ldan qo'ymay o'qilayotganini, ikkala yozuvchining ham go'zal asar yozganliklarining isboti sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Qahhor, Adabiyot muallimi. – Toshkent, 2019.
2. O.Genri, So'nggi yaproq. – Xurshid Davron elektron kutubxonasi.
3. "Ilhom bilan yozilgan asar" Dilmurod Qur'onov
4. M. Qo'shjonov,Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent-- 1984